

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

NABIYEV ULUG‘BEK NE‘MATOVICH

**OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLAR SHAROITIDA KUZGI BUG‘DOYGA
AZOTLI O‘G‘ITLAR QO‘LLASH MUDDATLARINING
SAMARADORLIGI
(ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)**

06.01.04 – «Agrokimyo»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on agricultural sciences**

Nabiyev Ulug'bek Ne'matovich

Och tusli bo'z tuproqlarda kuzgi bug'doy uchun azotli o'g'itlar qo'llash muddatlarining samaradorligi (Andijon viloyati misolida) 3

Набиев Улугбек Нейматович

Эффективность сроков применения азотных удобрений под озимой пшеницы в условиях светло-серозёмных почв (в условиях Андижанской области) 21

Nabiev Ulugbek Nematovich

The effectiveness of the timing of the application of nitrogen fertilizers under winter wheat in conditions of light gray soils (in the conditions of andijan region)..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 42

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

NABIYEV ULUG‘BEK NE‘MATOVICH

**OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLAR SHAROITIDA KUZGI BUG‘DOYGA
AZOTLI O‘G‘ITLAR QO‘LLASH MUDDATLARINING
SAMARADORLIGI
(ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)**

06.01.04 – «Agrokimyo»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.1.PhD/Qx698 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifasida (www.soil.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (<http://www.ziynet.uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimov Nazirbay Madrimovich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Sanaqulov Akmal Lapasovich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
Samarqand davlat universiteti

Bairov Abdunabi Jo‘raevich

qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Etakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00; e-mail: info@soil.uz).

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___- raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «___» _____ №___ - raqamli bayonnomasi)

SH.M.Bobomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

J.M.Ko‘ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d.,
katta ilmiy xodim

N.Yu.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda «dunyoda kuzgi bug‘doy 221 mln gektar maydonga ekilib, yalpi hosil miqdori 769 mln tonnani tashkil etmoqda. Bunda asosiy hosil ulushini Xitoy (132 mln), Hindiston (102 mln), Rossiya (74 mln) kabi davlatlar to‘g‘ri kelmoqda. Dunyo bo‘yicha 2022-yilda yetishtirilgan don mahsulotlarining 184 mln tonnasi eksport qilingan va uning asosiy qismini Rossiya (35 mln tonna), Yevropa ittifoqi (32 mln tonna), AQSH (27,5 mln tonna), Kanada (23 mln tonna), Ukraina (20,5 mln tonna) kabi davlatlar tamonidan amalga oshirgan bo‘lib, yuqori hosil yetishtirishda mineral va organik o‘g‘itlarning roli katta ekanligi qayd etilgan»¹. Shuning uchun ham tuproqlarda oziqa muhitini yaratish, har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga mos bo‘lgan mineral o‘g‘itlarni ilmiy asoslangan me‘yor va muddatlarida qo‘llash, kuzgi bug‘doydan sifatli va yuqori hosil olish orqali aholini don va un mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyoda tuproqlarning xossa-xususiyatlariga bog‘liq holda mineral va organik o‘g‘itlarni maqbul me‘yor va muddatlarda qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligi ekinlaridan, xususan, don ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishda oziqa moddalar muhim omillardan biridir. Oziqa moddalari ekinlarning hosil va turli qismlari bilan chiqib ketishi, vegetatsiya davrida oziqa elementlarga bo‘lgan talabi hamda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tuproqlarning agrokimyoviy ko‘rsatkichlari, o‘simlikning biologik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoitlari, tuproqlarning chirindi va oziqa moddalari bilan ta‘minlanganlik darajasi hamda o‘g‘it xususiyatlarini inobatga olgan holda mineral o‘g‘itlarning maqbul me‘yor va qo‘llash muddatlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘simlik vegetatsiyasi davrida ekinlar uchun maqbul oziqa muhitini shakllantirish orqali ularni oziqalanishini boshqarishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning mavjud sug‘oriladigan maydonlarida g‘o‘za va g‘alla navbatlab ekish tizimida har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga bog‘liq holda ekin turi, navi hamda mineral va mahalliy o‘g‘itlarni maqbul me‘yorlari, qo‘llash muddatlariga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida «...tuproq unumdorligini oshirib, muhofaza qilish; ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish; agrosanoat korxonalarini xom – ashyo bilan ta‘minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish»² kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu esa tuproqlarning oziqa elementlari bilan taminlanganlik darajasi, o‘simlikning oziqa elementlariga bo‘lgan talabiga bog‘liq holda mineral va organik o‘g‘itlarni maqbul me‘yor, muddat va nisbatlarini aniqlash orqali kuzgi bug‘doyning rivojlanish fazalarida oziqa moddalariga bo‘lgan talabini ilmiy jihatdan ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://latifundist.com/rating/top-10-stran-proizvoditelej-pshenitsy-v-2019-godu>.

² lex.uz/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-noyabrdagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentyabrdagi 806-son «Boshqali don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Don ekinlariga, xususan, bug‘doyga mineral va organik o‘g‘itlarni turli me‘yor va nisbat hamda muddatlarda qo‘llash orqali yuqori va sifatli don hosili yetishtirish bo‘yicha xorijlik olimlar B.J.Anderson, A.Bedo, L.Vida, J.I.Ortiz-Monasterio and W.R.Raun, Y.Peng, X.Li, C.Li, Y.Wang, V.G.Mineyev, V.I.Titova, A.A.Sobko, E.V.Nikolayev, P.M.Smironov, V.E.Torikov, S.A.Belchenko, M.P.Naumova, G.N.Bikov hamda respublikamiz olimlaridan N.M.Belousov, S.J.Sattarov, R.Siddiqov, X.N.Atabayeva, N.M.Ibragimov, B.Azizov, Z.Jumaboyev, L.A.Mirzayev, B.Atoev, A.J.Boirov, J.M.Ko‘ziyev, S.Q.Muxammadiyev, O.Mirzayev, SH.Hakimov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Lekin, Andijon viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli don hosili etishtirish uchun azotli o‘g‘itlarni qo‘llash muddatlariga bog‘liq ravishda tuproq oziqa muhitini shakllantirish va o‘simlikda oziqa elementlar to‘planishiga qaratilgan tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2018-yil 17-avgustdagi NT-1-son yig‘ilishidagi 2018-2021-yillarga mo‘ljallangan «Farg‘ona vodiysining turli tuproq sharoitlarida qishloq xo‘jalik ekinlari uchun mineral o‘g‘itlar me‘yorlarini maqbullashtirish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Andijon viloyatini sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli don shakllantirishni ta‘minlaydigan azotli o‘g‘itlar va sharbat (go‘ng shaltog‘i) qo‘llashni maqbul muddatlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida azotli mineral o‘g‘itlar qo‘llash muddatlarini tuproqdagi nitratli azot, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy dinamikasiga ta‘sirini aniqlash;

azotli o‘g‘itlarni qo‘llash muddatlarini kuzgi bug‘doyning rivojlanish fazalarida o‘simlik tomonidan NPKni o‘zlashtirishini aniqlash;

kuzgi bug'doyning o'sish-rivojlanishi hamda quruq massa to'plashiga azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlari ta'sirini aniqlash;

azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlarini kuzgi bug'doyning don hosili va sifatiga ta'sirini o'rganish;

kuzgi bug'doyga azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

kuzgi bug'doy hosili yig'ishtirib olinganidan so'ng dalada qolgan ildizang'iz miqdori va ular tarkibidagi NPKni aniqlash;

kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli don hosiliga erishish uchun azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiya ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Andijon viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari, azotli o'g'itlar, sharbat (go'ng shaltog'i) kuzgi bug'doyning «Tanya» navi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida tuproqlarning oziqa elementlari bilan ta'minlanganligi, tuproqdagi harakatchan oziqa moddalar dinamikasi, kuzgi bug'doyni NPK ni o'zlashtirishi, oziqa elementlaridan foydalanish koeffitsienti, azotli o'g'itlar, sharbat (go'ng shaltog'i), urug'larning unib chiqishi, fenologik kuzatuvlar, biometrik o'lchovlar, o'simlikni quruq massa to'plashi, kuzgi bug'doyning don hosili va sifatini tadqiq qilishni o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda, dala tajribalari, kuzatuv va kimyoviy tahlil ishlari tuproqshunoslik va agrokimyoda umumiy qabul qilingan uslublar: dala va ishlab chiqarish tajribalari «Методике полевого опыта» va «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» bo'yicha; tuproq va o'simlik namunalarini olish, ularning kimyoviy tahlillari «Методики агрохимических анализов почв и растений Средней Азии»; kuzgi bug'doy don, unboplik va nonboplik sifat ko'rsatkichlarini tahlillari «Зерновые, зернобобовые и масличные культуры» uslubiy qo'llanmalari bo'yicha, tajribadan olingan ma'lumotlarning variatsion-statistik tahlili B.A.Dospexovning «Методика пологого опыта» uslubiy qo'llanmasi va «Microsoft Excel» dasturi asosida hamda iqtisodiy samaradorligi N.A.Baronov usuli asosida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda azotli o'g'itlarni maqbul qo'llash muddatlari (ekish oldidan 30 kg/ga, tuplanishda 50 kg/ga, naychalashda 75 kg/ga va boshoqlash fazasida 25 kg/ga go'ng shaltog'i bilan) aniqlangan;

sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida parvarishlanadigan kuzgi bug'doyga go'ng shaltog'ini boshoqlash fazasidagi N₂₅ kg/gani go'ng shaltog'i (8 t/ga) bilan qoplab sharbat usulida qo'llash uning hosil salmog'iga ijobiy ta'sir qilishi isbotlangan;

kuzgi bug'doyga azotli o'g'itlar maqbul muddatda qo'llanilganda an'anaviy usulda qo'llanilayotgan o'g'itlarga nisbatan don shaffofligi 2%, kleykovina miqdori 0,3%, oqsil miqdori 0,4%, don naturasi 4 g/l yuqori bo'lishi asoslangan;

kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli don hosilini shakllantirishda rivojlanish fazalari (tuplanishda, naychalash, boshoqlash, sut pishish)da o'simlik tomonidan

o'zlashtirilgan oziqa elementlarning maqbul nisbati bir xil 1:0,6:1 nisbatda bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Andijon viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida yillik mineral o'g'itni $N_{180}P_{130}K_{70}$ kg/ga me'yorda belgilash va azotli mineral o'g'itlarni ekish oldidan 30 kg/ga, tuplanishda 50 kg/ga, naychalashda 75 kg/ga qo'llash va boshoqlash fazasidagi N_{25} kg/gani go'ng shaltog'i (8 t/ga) bilan qoplab qo'llanilganda 10,4 s/ga qo'shimcha hosil olingan;

kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli don hosili shakllantirishda uning rivojlanish fazalarida (tuplanish, naychalash, boshoqlash, sut pishish) tuproqning 0-30 sm qatlamida nitrat shaklidagi azot ($N-NO_3$) miqdori tuplashda 33,9 mg/kg; naychalashda 34,2; boshoqlashda 34,1 va sut pishish davrida 33,6 mg/kg, harakatchan fosfor (P_2O_5) miqdori mos ravishda 35,3; 34,8; 34,2; 33,4 mg/kg, almashinuvchi kaliy (K_2O) miqdori esa 223; 214; 206; 197 mg/kg pishish fazasida o'simlik qismlarida umumiy azot, fosfor va kaliy miqdorlari 1:0,6:1 nisbatda bo'lishi aniqlangan;

sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyga azotli o'g'itlarni maqbul muddatlarda hamda go'ng shaltog'ini sharbat usulida boshoqlash fazasida qo'llanilishi don sifat ko'rsatkichlariga ijobiy (oqsil 13,3%, kleykovina 30,4%, don shaffofligi 60%, don naturasi 765 g/l) ta'sir qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotdan olingan ma'lumotlar variatsion-statistik tahlil qilinganligi, nazariy va amaliy natijalari bir-biriga mos kelishi, olingan natijalarni ishlab chiqarishda qo'llanilganligi, xulosalar ilmiy jihatdan asoslanganligi, dala tajribalari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markaz olimlari tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilganligi, tadqiqot natijalarining xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, shuningdek, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda azotli o'g'itlarni maqbul qo'llash muddatlari aniqlanganligi, sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida parvarishlanadigan kuzgi bug'doyga go'ng shaltog'ini boshoqlash fazasida sharbat usulida 8 t/ga hisobida qo'llanilishi uning hosil salmog'ida ijobiy ta'sir qilishi isbotlanganligi, kuzgi bug'doyga mineral va g'o'ng shaltog'ini maqbul muddatda qo'llanilganda an'anaviy usulda qo'llanilayotgan o'g'itlarga nisbatan don shaffofligi 2%, kleykovina miqdori 0,3%, oqsil miqdori 0,4%, don naturasi 4 g/l yuqori bo'lishi asoslanganligi, kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli don hosilini shakllantirishda rivojlanish fazalarida tuproqda harakatchan oziqa elementlarning maqbul nisbati aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Andijon viloyatida tarqalgan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyning «Tanya» navidan yuqori hosil yetishtirishda mineral o'g'itlarning $N_{180}P_{130}K_{70}$ me'yorda belgilash va azotli mineral o'g'itlarni 30 kg/ga miqdorda ekish bilan, 50

kg/ga tuplashda, 75 kg/ga naychalash fazasida, boshqalash fazasidagi N₂₅ kg/gani go'ng shaltog'i (8 t/ga) bilan qoplab sharbat usulida qo'llash lozimligi tuproqlarning agrokimyoviy xossalari (harakatchan azot, fosfor va almashuvchi kaliy moddalari)ga ijobiy ta'sir etishi, vegetatsiya yakunida tuproqlarning haydov qatlamlarida nitratli azot 3,9 mg/kg, harakatchan fosfor 0,3 mg/kg, almashuvchi kaliy 6 mg/kg ga kamaygan, kuzgi bug'doy hosildorligi 10,4 s/ga, rentabellik darajasi 42,7 foizga oshishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kuzgi bug'doy don hosildorligi va sifatini oshirishda azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlarini ahamiyati bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

kuzgi bug'doyning don hosili va texnologik sifatini oshirish bo'yicha «Kuzgi bug'doy uchun azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlarining samaradorligi» nomli tavsiyanoma Andijon viloyatida amaliyotda joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 07-oktyabrdagi 07/23-04/723-son ma'lumotnomasi). Natijada, Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda qishloq xo'jaligi soxasi xodimlari, klaster va fermerlar uchun qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyga mineral o'g'itlarni yillik miqdorini N₁₈₀P₁₃₀K₇₀ kg/ga me'yorda belgilash va azotli o'g'itni tuplanish, naychalash, boshqalash fazasidagi N₂₅ kg/ga ini go'ng shaltog'i (8 t/ga) bilan qoplab sharbat usulida qo'llash agrotexnologiyasi Andijon viloyati Izboskan tumanida joylashgan «Bo'ston Omonboy» fermer xo'jaligining 30,0 ga, «Maxmudjon merosi» fermer xo'jaligining 20,0 ga, «Yangizamon mo'l hosili» fermer xo'jaligining 15,7 ga, jami 65,7 ga maydonda amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 07-oktyabrdagi 07/23-04/723 son ma'lumotnomasi). Natijada, an'anaviy o'g'it me'yorilariga va azotli o'g'itlarni tabaqalab qo'llanilayotgan muddatlarga nisbatan qo'shimcha don hosili 10,4 s/ga olingan, dondagi oqsil miqdori 0,4%, kleykovina 0,3%, don shaffofligi 2% ga va don natura ko'rsatkichi 4 g/l ga, rentabellik darajasi 42,7 foizni, nonboblik ko'rsatkichi ham yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala tajribalari har yili Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiya institutining hamda Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining maxsus abrobatsiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilib va ijobiy baholangan hamda natijalari bo'yicha jami 5 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 1 ta xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. dissertatsiyaning asosiy hajmi 120 sahifani tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan hamda texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, ularning ishonchliligi va joriy etilganligi, tadqiqotlar abrobatsiyadan o'tganligi va natijalarning chop etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, dissertatsiyaning hajmi va tarkibi qismi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi qismi bobida dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorij va respublika olimlari tomonidan olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari sharhlangan. Bunda, kuzgi bug'doyga qo'llanilgan mineral o'g'itlarning me'yorlari, ekinlarni o'sish-rivojlanishi, hosildorligi, hosil sifatidagi o'zgarishlar, tuproqqa bo'ladigan ta'sirlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tajriba o'tkazilgan joyning tuproq-iqlim sharoitlari, tajriba o'tkazish uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida dala tajribalari olib borilgan joyning tuproq-iqlim sharoiti tavsiflangan. Ushbu bobning «*Tajriba o'tkazish uslublari*» bo'limida tajriba o'tkazish uslubi, dala tajribasini olib borish tizimi, o'simlikning o'sish rivojlanishi, quruq modda va hosilni shakllanishi, tuproqqa bo'lgan ta'siri fenologik kuzatuvlar va biometrik hisoblar, laboratoriya tahlillari, shuningdek, tajriba ma'lumotlariga matematik-statistik ishlov qo'llash tartibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tuproqda harakatchan oziqa moddalari va o'simlikni oziqa moddalarini o'zlashtirishiga azotli o'g'itlar qo'llash muddatlarining ta'siri**» deb nomlangan uchinchi bobining «*Tuproqdagi nitratli azot dinamikasiga azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlarini ta'siri*» bo'limida tuproqning 0-30 sm qatlamida nitratli azot miqdori o'simlik vegetatsiyasining barcha davrlarida (tuplash, naychalash, boshhoqlash, sut-mum pishish) azotli o'g'itlar qo'llash muddatlariga qarab tuproqdagi nitratli azot miqdori o'zgarganligi to'g'risida ma'lumotlar qayd etilgan. Nazorat variantida o'simlik fazalariga mos ravishda 34,0; 34,7; 34,2 va 33,7 mg/kg, 2-var. 33,6; 36,1; 35,6 hamda 35,2 mg/kg ga bo'ldi. Bunga, azotli o'g'itlar bug'doyning tuplash va naychalash fazasida qo'llanilganligi tuproqdagi nitratli azot miqdori naychalash fazasida ortib, keyinchalok kamaydi. Tajribaning 3-variantida azotli o'g'itlar ekishdan oldin, tuplash, naychalash, boshhoqlashda berilganligi sababli nitratli azot miqdori bir xilda ortib borgan (33,9; 34,2; 34,3 va 34,0 mg/kg).




1-rasm. Tuproqning a-0-30 sm, b-0-100 sm qatlamidagi nitratli azot dinamikasi, mg/kg hisobida

Tajribaning qolgan 4-14-variantlarida ham tuproqdagi nitratli azot miqdori azotli o'g'itlarning qo'llash muddatlariga bog'liq holda o'zgarib bordi. Tajribaning keyingi yillarida ham shu kabi ma'lumotlar olindi (1 va 2-rasmlar). Tuplash fazasida 1-variant tuprog'ining 0-30 sm qatlamida nitratli azot miqdori 35,0 mg/kg, 0-100 sm qatlamida 25,5 mg/kg, 7-variantda azotning yillik me'yorini 105 kg/ga miqdori qo'langanda 0-30 sm qatlamda 35,7; 0-100 sm qatlamida esa 25,9 mg/kgni tashkil etdi.

Tajribaning uchinchi yilida ham oldingi yillardagiga yaqin ma'lumotlar olindi, faqat 1, 3, 7- va 13-variantlarning tuproqlarning 0-30 sm qatlamidagi nitratli azot miqdori 0,3-0,7 mg/kg ga kamayganligi aniqlandi. Umuman olganda, tuproq tarkibidagi nitrat azot miqdori birinchi navbatda solinayotgan azotli mineral o'g'itning muddatiga bog'liq bo'ladi. Tuproqdagi azotli oziqa moddalar miqdoriga, uchinchidan o'simlik tomonidan o'zlashtirilishiga va ob-havo sharoitiga bog'liq bo'ladi. Tuproq tarkibida mineral holdagi nitrat azotini kam saqlanib qolishi keyingi ekin mahsuloti tarkibida nitrat azoti me'yordan ortib ketmasligini ta'minlaydi. Tajribaning 13-variantida tuproqning 0-30 va 0-100 sm qatlamlarida nitratli azot miqdorini me'yorda saqlanib qolingani va bug'doy don hosilini va sifatini yuqori bo'lishiga olib keldi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida, «Tuproqdagi harakatchan fosfor dinamikasiga azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlarining ta'siri» nomli bo'limida tuproqdagi harakatchan fosfor me'yori o'rganilgan va qayd etilgan. Tajribani birinchi yili 0-30 sm qatlamidagi tuproq tarkibida harakatchan fosfor miqdori nazorat variantida 34,3 mg/kg dan 32,8 mg/kg ga kamaygan bo'lsa, tajribaning boshqa variantlarida (2-14-var.) ham 2,0-2,5 mg/kg oralig'ida kamaydi. Tajribaning barcha variantlarida harakatchan fosforning kamayishiga haydov ostiga fosforli o'g'itlarni 100% berilganligi bilan izohlanadi. Huddi shunga o'xshash holat tuproqning 0-100 sm qatlamida ham kuzatildi. Tajribaning ikkinchi yilida ham tuproq qatlamlari bo'yicha harakatchan fosfor miqdori aniqlandi

(2.a-rasm). Tajribaning variantlari bo'yicha tuproqning 0-30 sm qatlamida harakatchan fosfor 1,4-1,8 mg/kg miqdorida tuplash fazasiga nisbatan kamaydi. Eng ko'p kamayish azotli o'g'itlarni tuplash, naychalash, boshqoqlash fazalarida berilgan 13-variantda kuzatilib, 1,8 mg/kg ni tashkil etdi. Tajribaning uchinchi yili olib borgan izlanishlar natijalariga ko'ra, tuproqning 0-30 sm qatlamida nitratli azot nazorat variantida o'simlikni tuplash fazasida 33,6 va sut mum-pishishda kamayib 31,4 mg/kg ni tashkil etdi. Kuzgi bug'doy uchun azotli o'g'itlarni tabaqalashtirib berilgan 7-, 13- va 14-variantlarda boshqa variantlardan ko'proq (2,2 mg/kg ga) kamaydi. Shuningdek, tuproqning 0-100 sm qatlamidagi (2.b-rasm) harakatchan fosfor miqdori barcha variantlarda dastlabkidan 0,8-1,5 mg/kg ga kamaydi. Azotli o'g'itlarni ekishdan oldin, tuplash, naychalash va boshqoqlash fazalarida qo'llanilganda (7, 13 va 14-var.) tuproqdagi harakatchan fosfor miqdorida sezilarli o'zgargan.



2-rasm. a-ikkinchi yili tuproqning 0-30 sm qatlamidagi, b-uchinchi yilgi tuproqning 0-100 sm qatlamidagi harakatchan fosfor miqdori

Dissertatsiyaning «Azotli o'g'itlar qo'llash muddatlarini tuproqdagi almashinuvchi kaliy dinamikasiga ta'siri» bo'limida tuproq tarkibidagi almashinuvchi kaliy miqdori keltirilgan. Tajribaning birinchi yili tuproqning 0-30 sm qatlamidagi almashinuvchi kaliy miqdori tajribaning 1-variantda o'simlikni tuplash fazasi (233 mg/kg) dan sut-mum pishish fazasigacha 30 mg/kg ga (203 mg/kg) kamaydi. Tajribaning qolgan variantlarida ham azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlariga bog'liq holda 3, 5, 7, 8, 10, 11, 13 va 14 variantlarda nazorat bilan bir xil 30 mg/kg, 2, 4, 6, 9 va 12 variantlarda esa mos ravishda 17; 19; 20; 17 va 17 mg/kg kamaygan.


Xuddi shunga o'xshash ma'lumotlarni tuproqning 0-100 sm qatlamidagi almashinuvchi kaliy miqdorida ham kuzatildi. Tajribada azotli o'g'itlarni 1-variantida 27 mg/kg, azotli o'g'itlarni ekishdan oldin 30 mg/kg ga me'yorda qo'llangan 5, 8, 10, 11, 13 va 14 variantlarida bir xil 25 mg/kg, 3-variantda 18 mg/kg va 7-variantda 23 mg/kg ga kamayishi kuzatildi.

Tajribaning ikkinchi yili olingan ma'lumotlarga ko'ra, tuproqning 0-30 qatlamida almashinuvchi kaliy miqdori kuzgi bug'doy vegetatsiyasini

boshidan oxiriga borgani sayin variantlar bo'yicha 17-26 mg/kg ga oraliq'ida kamaydi. Tuproqning 0-100 sm qatlamida almashinuvchi kaliy miqdori o'rganilganda ham 0-30 sm qatlamdagi qonuniyat saqlanib qoldi. Ammo, yuqori qatlamga nisbatan kamayish biroz kam bo'ldi.

Tajribaning keyingi uchinchi yilida ham variantlar bo'yicha tuproqdagi almashinuvchi kaliy miqdori aniqlandi (3.a-rasm). Bunda tuproqning 0-30 sm qatlamida variantlar bo'yicha vegetatsiyasining boshidan oxirigacha 23-37 mg/kg oraliq'ida kamaydi. Xuddi shunday holat tuproqning 0-100 sm qatlamida ham kuzatilib, variantlar bo'yicha almashinuvchi kaliy miqdori 17-26 mg/kg oraliq'ida kamaydi.


Dissertatsiyani uchinchi bobining «Azotli mineral o'g'itlar qo'llash muddatlari ta'sirida o'simlikni oziqa moddalarini o'zlashtirishi» bo'limida kuzgi bug'doy o'sishi, ular azot, fosfor va kaliy miqdorlarini o'zlashtirishni uch yillik o'rtachasi keltirilgan (3.b-rasm).



3-rasm. a-tuproqning 0-100 sm qatlamidagi almashinuvchi kaliy miqdori, b-tuproqdan azotni o'zlashtirishi, mg/o'simlik hisobida

Kuzgi bug'doy tomonidan azotni o'zlashtirishi aniqlanganda, tuplash fazasida variantlar bo'yicha 4,6-6,3; naychalashda 6,0-8,2; boshqlash fazasida 6,6-9,2; va pishish fazasida 6,6-8,2 mg/o'simlik oraliq'ida bo'ldi. 4.a-rasmida kuzgi bug'doyning tuproqdan fosforni o'zlashtirishi keltirilgan, fosfor o'zlashtirishi azotga nisbatan ancha kam, tuplashda variantlar bo'yicha uch yilda o'rtacha 1,3-1,7; naychalashda 2,3-2,8; boshqlashda 3,0-3,6 va 2,9-3,3 mg/o'simlikni tashkil etdi.

Kuzgi bug'doy kaliyni ko'p o'zlashtiradi (4.b-rasmga), 1-variantda tuplashda 7,7; naychalashda 11,2; boshqlashda 12,5 va mum pishishda 9,4 mg/o'simlik miqdorida o'zlashtirdi. 13-variantda o'simlik fazalari bo'yicha mos ravishda 7,7; 11,3; 12,5 va 9,4 mg/ miqdorida kaliy olib chiqib ketilishi aniqlandi.



4-rasm. a-o‘simlikning tuproqdan fosforini o‘zlashtirishi, b- kaliyni o‘zlashtirishi, mg/o‘simlik hisobida, uch yillik o‘rtacha

Tajriba variantlari bo‘yicha bir gektar maydondan olib chiqib ketgan NRK miqdorini 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, bunda ko‘chatlar soniga bog‘liq holda bir gektar maydondan olib chiqib ketdi. Bunda, azot o‘zlashtirishi 23,8-31,9 mg/kgni tashkil qildi. Dala tajribasining 13-variantida kuzgi bug‘doy don va somon hosili bilan N-134,1; R-80,8; K-130,9 kg/ga miqdorda oziqa moddalarini o‘zlashtirdi. Tajriba variantlari bo‘yicha 10 s/ga hosil bilan olib chiqib ketilgan oziqa moddalari 13-variantda 8,5; 4,2 va 15,1 kg/ga, azotga nisbatan ko‘rganimizda ular 1:0,5:1,8 nisbatda bo‘ldi.


1-jadval

Kuzgi bug‘doyning qismlari tarkibidagi oziqa moddalar va ularning chiqib ketishi, kg/ga hisobida

Var.	Oziqa moddalar mg/o‘simlik hisobida			Bir gektar maydondan olib chiqib ketgani			10 sentner hosil bilan chiqib ketgani		
	N	P	K	N	P	K	N	P	K
1	41,7	24,0	40,8	133,4	76,8	130,6	17,5	10,1	17,1
2	32,3	22,7	38,4	106,6	74,9	122,9	16,1	11,3	18,5
3	40,2	23,8	39,9	132,7	78,5	127,8	18,6	11,0	17,9
4	32,5	23,4	39,9	107,3	77,2	127,8	17,3	12,4	20,5
5	39,3	23,5	38,3	125,8	75,2	122,6	17,9	10,7	17,4
6	33,0	23,1	38,6	102,3	71,6	123,5	15,8	11,1	19,1
7	40,9	23,6	40,9	130,9	75,5	130,9	16,6	9,6	16,6
8	40,2	23,4	38,7	128,6	74,9	123,8	17,5	10,2	16,9
9	33,0	23,8	37,9	108,9	78,5	121,3	16,6	11,9	18,5
10	40,3	23,9	40,8	129,0	76,5	130,6	17,3	10,3	17,5
11	39,9	23,6	39,2	131,7	77,9	125,4	20,1	11,9	19,2
12	36,8	22,5	37,4	125,5	74,3	119,7	15,9	9,3	15,7
13	41,9	24,3	40,9	134,1	80,8	130,9	15,5	9,3	15,1
14	41,8	24,2	40,9	133,8	79,4	130,9	16,0	9,5	15,6

Dissertatsiyaning «Azotli mineral o'g'itlarni qo'llash muddatlarini kuzgi bug'doy o'simligiga ta'siri» deb nomlangan to'rtinchi bobining «Kuzgi bug'doyni haqiqiy ko'chat qalinligi, o'sishi va rivojlanishiga azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlarini ta'siri» bo'limida dala tajribasida ko'chat qalinligi to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilgan. Bunda variantlar bo'yicha 3,2-3,5 mln dona, kuzgi bug'doyda olib borilgan agrotexnik tadbirlar, qishki sovuqlarda nobud bo'lishi, bahorgi xolati to'g'risida ma'lumotlar kelnirilgan. Variantlar bo'yicha 2,9-3,2% oralig'ida o'simlik nobud bo'ldi. Tajribada kuzgi bug'doy poyasining balandligi 15,9-17,3 sm oralig'ida bo'lgan, poyalar soni 3,3-4,1 donani tashkil qildi. O'simlikni nay o'rashida o'simlik poyasi balandligi 84 sm, tuplar soni 4,7 dona, boshqash fazasida umumiy poyalari soni 5-7 donani shundan, mahsuldor poyalar 1,3-1,5 dona oralig'ida bo'ldi. Tajribada kuzgi bug'doyni mum pishish fazasida bitta boshqadagi don soni variantlar bo'yicha 37,3-38,5 dona, bitta boshqadagi don og'irligi 1,2-1,4 g ni, 1000 dona don vazni 33 g ni, variantlar bo'yicha biologik hosil 62,9-87,3 s/ga oralig'ida bo'ldi.

Dissertatsiyaning «Azotli o'g'itlar qo'llash muddatlariga bog'liq holda kuzgi bug'doyda quruq modda to'plashi» bo'limida o'simlik fazalarida quruq modda miqdorlari keltirilgan. Tajribada kuzgi bo'g'doyning tuplash fazasida bargi va poyasidagi quruq modda variantlari bo'yicha 1,19-1,35; naychalashda 2,9-3,6; boshqashda 7,1-8,4 va mum pishishda 7,6-9,4 g/o'simlik oralig'ida kuzatildi.



5-rasm. Azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlariga bog'liq holda a- Bir gektar maydondagi quruq modda miqdori; b- korrelyasion bog'liqlik

Kuzgi bug'doyni bir gektar maydonda quruq modda to'plashi azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlariga bog'lab o'rganganilganda (5.a-rasm) eng yuqori ko'rsatgich 13-variantda kuzatildi, va u 310,2 s/gani tashkil etdi. Kuzgi bug'doy va azotli o'g'itlar qo'llash muddatlari orasida korrelyasion bog'liqlik bor ekanligi kuzatildi. Bunda $r=0,505$ ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning «Azotli mineral o'g'itlar qo'llash muddatlarini kuzgi bug'doy hosil struktura elementlarining shakllanishiga ta'siri» bo'limida azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlariga bog'liq holda hosil elementlarini shakllanishi keltirilgan.

Azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlariga ko'ra, boshqoq uzunligi variantlar bo'yicha 8,2-8,5 sm ni, bitta boshqoqda shakllangan donlar soni 40,1-41,9 dona ni, bitta boshqodagi don og'irligi 1,23-1,39 g ni, 1000 dona don vazni 39,7-40,4 g, don naturasi 784,3-802,1 gl., shaffofligi 60,4-70,4%, oqsil miqdori 13,0-13,5%, kleykovina miqdori esa 30,1-30,7% ni tashkil etdi (2-jadval).

Azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlariga bog'liq holda kuzgi bug'doy donidan un chiqish miqdori biroz o'zgardi. Don hosili ortishi bilan dondan un chiqish miqdori kamayib ketdi. Eng kam don hosili olinganida un chiqish miqdori 71foiz ni, eng yuqori olinganida esa 69 foiz ni tashkil etdi. Shunga qaramasdan bir gektardan olingan don hosili ko'p bo'lganligi sababli shu maydondan olinadigan un miqdori ham ortishi kuzatildi, 13-variantda 86,7 s/ga ni olinganda un chiqish miqdori 69 foiz ni tashkil qildi. Bir gektar maydondan 55,5 s/ga hosil olinganda esa 71% ni tashkil qildi.

2-jadval

Azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlarining kuzgi bug'doy doni sifatiga ta'siri

№	Bug'doy doni sifat ko'rsatgichlari							Kleykovina miqdori, %
	Boshqoq uzunligi, sm	Bir boshqodagi shakllangan don soni, dona	Bitta boshqodagi don og'irligi, g	1000 dona don vazni, g	Don naturasi, g.l	SHaffo fligigi, %	Oqsil miqdori, %	
1	8,5	41,6	1,37	40,4	765	60	13,3	30,4
2	8,3	40,4	1,24	39,7	764	58	13,0	30,1
3	8,4	40,6	1,27	39,8	764	58	13,2	30,1
4	8,2	40,1	1,23	39,9	765	59	13,1	30,2
5	8,4	40,5	1,26	39,9	763	58	13,1	30,1
6	8,3	40,3	1,24	40,0	765	59	13,2	30,3
7	8,4	41,0	1,30	40,1	764	58	13,1	30,1
8	8,4	40,8	1,29	40,1	764	59	13,0	30,1
9	8,3	40,5	1,28	39,8	763	58	13,2	30,1
10	8,4	40,9	1,31	39,9	765	60	13,3	30,4
11	8,3	40,4	1,24	39,7	764	59	13,2	30,2
12	8,4	41,0	1,31	40,2	764	58	13,2	30,2
13	8,5	41,9	1,39	40,4	765	60	13,3	30,4
14	8,5	41,5	1,36	40,2	765	60	13,3	30,3

Dissertatsiyaning «Kuzgi bug‘doyning don hamda somon hosili bilan azotli o‘g‘itlarni qo‘llash muddatlari orasidagi korrelyasion bog‘liqligi va uni statistik tahlili» bo‘limida tajriba variantlari bo‘yicha don va somon hosili keltirilgan.

Azotli o‘g‘itlarni ekishdan oldin 30 kg/gadan berilgan (1, 3, 5, 7, 8, 10, 11, 13 va 14) variantlarda kuzgi bug‘doy don hosili ekishdan oldin azotli o‘g‘it berilmagan (2, 4, 6 va 9) variantlardan ancha yuqori hosil olishni ta‘minladi. Shuningdek, olingan ma‘lumotlarni korrelyasion bog‘liqligi ko‘rib chiqilganida (6-a rasm), ular orasidagi bog‘liqlik $r=0,7280$ ekanligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Azotli o‘g‘itlarni qo‘llash muddatlarining kuzgi bug‘doy don hosildorligiga ta‘siri, s/ga hisobida, o‘rtacha uch yillik


Variantlar	1-yil	2-yil	3-yil	o‘rtacha	Nazoratdan farqi, +, -
1	76,0	76,2	76,7	76,3	-
2	66,2	66,3	66,7	66,4	-9,9
3	71,2	71,4	71,9	71,5	-4,8
4	62,0	62,1	62,5	62,2	-14,1
5	70,1	70,1	70,7	70,3	-6,0
6	64,2	64,3	65,3	64,6	-11,7
7	78,4	78,6	79,4	78,8	+2,5
8	74,1	73,2	73,9	73,4	-2,9
9	65,4	65,6	66,0	65,7	-10,6
10	74,2	74,3	75,0	74,5	-1,8
11	65,1	65,3	65,8	65,4	-10,9
12	80,1	80,2	80,9	80,4	+4,1
13	86,4	86,6	87,0	86,7	+10,4
14	83,3	83,5	84,3	83,7	+7,4
NSR ₀₅ s/ga	0,76	0,19	0,32		
NSR ₀₅ %	1,05	0,26	0,49		

Kuzgi bug‘doy somon hosilini o‘rganish natijasida, azotli o‘g‘itlarni o‘simlik vegetatsiyasining keyingi fazalarida (naychalash, boshoqlash, mum pishish) qo‘llash somon hosili bilan don hosili orasidagi nisbatni somon hosili hisobiga hal bo‘lishiga olib kelishi aniqlandi. Tajribaning 2, 4, 5, 6, 9, 11, 13 va 14 variantlarida nazoratga nisbatan somon hosilining (0,2-2,8 s/gacha) ortganligi kuzatildi. Azotli o‘g‘itlarni kech muddatlarda qo‘llash don shakllanishiga qaraganda poya va barglarini yaxshi o‘sib rivojlanishiga olib keladi. Bu somon hosilining ortishini ta‘minlanib korrelyasion bog‘liqligi tahlil qilinganida ham ishonarliligi tasdiqlandi (6.b-rasm) va u $r=0,4359$ ga teng bo‘ldi.

Dissertatsiyaning «Azotli o‘g‘itlar qo‘llash muddatlarining kuzgi bug‘doy qoldirgan ildiz va ang‘iz miqdori hamda uni tarkibidagi NPK miqdoriga ta‘siri»

deb nomlangan bo‘limida o‘tkazilgan dala tajribasidagi kuzgi bug‘doyning ildiz – ang‘iz qoldig‘i, uning tarkibidagi NPK to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirigan.

Dala tajribasini nazorat varianti tuprog‘ida qolgan ildiz va ang‘iz miqdori 3,79 t/ga azotli o‘g‘itlarni ekish bilan qo‘llanilmagan 2, 4, 6, 9, 12-variantlarda ularning miqdori qolgan variantlardan ancha kam 3,07-3,07-3,09-3,18 t/ga oralig‘ida ekanligi aniqlandi. Azotli o‘g‘itlar yillik me’yoridan 30 kg/gani ekishdan oldin berilgan va qolgan qismi o‘simlikni tuplash, naychalash, boshhoqlash va sut-mum pishish fazalarida tabaqalab qo‘llanilgan 13 hamda 14 variantlarda 3,78; 3,72 t/ga, 5, 8 va 11-variantlarda ham bu ko‘rsatkich nisbatan past (mos ravishda 3,37; 3,39 t/ga va 3,08 t/ga) bo‘ldi.



6-rasm. Azotli o‘g‘itlarni qo‘llash muddatlari bilan kuzgi bug‘doy hosildorligi orasidagi korrelyasion bog‘liqlik. a-don hosili, b-somon hosili

Kuzgi bug‘doydan keyin dalada qolgan ildiz va ang‘iz miqdori tarkibi o‘rganilganda ildiz tarkibidagi azot miqdori variantlar bo‘yicha 0,45-0,57% oralig‘ida kuzatildi. Fosfor miqdori esa 0,17-0,19% ni, kaliy miqdori 0,21-0,25% oralig‘ida ekanligi aniqlandi. Kaliy miqdorining eng ko‘p bo‘lishi 1 va 13-variantlarda bir xil 24%, 14-variantda 25% ekanligi o‘rganildi.

O‘simlik qoldig‘i (ang‘iz) tarkibidagi oziqa moddalari ildizdagidan keskin farq qildi. Ang‘iz tarkibida azot miqdori 0,15-0,19 foiz ni; fosfor miqdori 0,01-0,09 foiz ni, kaliy miqdori 0,08-0,14 foiz ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning «Tajribada kuzgi bug‘doyga azotli o‘g‘itlar qo‘llash muddatlariga bog‘liq holda iqtisodiy samaradorligi» deb nomlangan bo‘limida olingan ma’lumotlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari qayd etilgan.

Bunda, o‘tkazilgan dala tajribasining 13-variantida foyda 9,537 mln so‘mni; 14-variantida esa 9,207 mln so‘mni tashkil etdi. Tajribada sof foyda 13-variantda 2,857 mln so‘m, 14-variantda esa 2,682 mln so‘mni tashkil qildi. Rentabillik darajasi esa 13-variantda 42,0 foizni, 14-variantda esa 41,1 foizni tashkil etdi.

XULOSALAR

1. Dala tajribasi o'tkazilgan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqning genetik qatlamlarida fizik loy miqdori 28,75–45,45% oralig'ida, o'rta qumoqli, sho'rlanmagan, haydov qatlamida gumus miqdori 0,914%, umumiy azot 0,078%, umumiy fosfor 0,159%, umumiy kaliy 1,51 foizni tashkil etadi. O'simliklar o'zlashtira oladigan harakatchan shakldagi nitrat bilan juda kam, harakatchan fosfor bilan kam, almashinuvchi kaliy bilan esa o'rtacha darajada ta'minlangan.

2. Kuzgi bug'doyga qo'llanilgan mineral o'g'itlarga bog'liq ravishda tuproq tarkibidagi oziqa moddalarning dinamikasi o'zgarib turadi. Bunda, azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlariga bog'liq ravishda tebranib, vegetatsiyada o'simlikni oziqa elementiga bo'lgan talabini qondirdi va uning yaxshi o'sib-rivojlanishini ta'minladi. Tuproqda harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdorlari esa vegetatsiya davrining boshida yuqori, keyingi davrlarda esa kamaydi.

3. Azotli o'g'itlarni kuzgi bug'doyning vegetatsiya davrida qo'llanilgan miqdoriga bog'liq ravishda azot 102,3-134,1 kg/ga, fosfor 71,6-80,8 kg/ga, kaliy 119,7-130,9 kg/ga o'zlashtiradi, 13 maqbul variantda 10 s don hosil shakllantirish uchun 15,5 kg azot, 9,3 kg fosfor, 15,1 kg kaliy sariflandi.

4. Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqda kuzgi bug'doyga mineral o'g'itlarni yillik me'yorini $N_{180}P_{130}K_{70}$ kg/ga qilib belgilash va azotli o'g'itlar ekishdan oldin 30 kg/ga, tuplanishda 50 kg/ga, naychalashda 75 kg/ga va boshoqlash fazasidagi N_{25} kg/gani go'ng shaltog'i (8 t/ga) bilan qoplab sharbat usulida qo'llanilganda, kuzgi bug'doydan 86,7 s/ga don, 67,4 s/ga somon hosili olindi.

5. Azotli o'g'itlarni kuzgi bug'doyning turli o'sish fazalarida tabaqalab qo'llanilganda don natura ko'rsatkichlari 763-765 g/l oralig'ida, don shaffofligigi 58-60%, dondagi oqsil miqdori 13,0-13,3%, kleykovina miqdori 30,1-30,4% oralig'ida qayd etildi. Donning barcha sifat ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natija 13-variantda kuzatildi va donda oqsil va kleykovina miqdorlarini to'g'ri proporsional bo'lishini ta'minladi.

6. Kuzgi bug'doy donidan un chiqish miqdori azotli o'g'itlarni tabaqalab qo'llash muddatlariga bog'liq ravishda o'zgarib bordi. Kuzgi bug'doy donidan un chiqishi tajriba variantlari bo'yicha 68-71 foizni, bir gektar maydondan un chiqish miqdori esa 44,2-59,8 s/ga ni tashkil qildi. Tajribada eng yuqori un chiqish miqdori 4, 6, 9 va 11-variantlarda erishilgan bo'lsada, bir gektar maydondan olinadigan un miqdori don hosili yuqori bo'lgan (86,7 s/ga) 13-variantda kuzatilib, 59,8 s/gani tashkil etdi.

7. Tajribaning eng yuqori iqtisodiy ko'rsatkichi kuzgi bug'doyga azotli o'g'itlar ekishdan oldin 30 kg/ga, tuplanishda 50 kg/ga, naychalashda 75 kg/ga va boshoqlash fazasidagi N_{25} kg/gani go'ng shaltog'i (8 t/ga) bilan qoplab sharbat

usulida qoʻllangan 13-variantda kuzatildi, sof foyda 2857,0 ming soʻmni, rentabellik darajasi esa 42,7 foizni tashkil etdi.

8. Sugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlar sharoitida kuzgi bugʻdoyga azotli oʻgʻitlarni tabaqalab (ekish oldidan, tuplanish, naychalash va sut pishish davrlarida, boshqalash fazasidagi N_{25} kg/gani goʻng shaltogʻi (8 t/ga) bilan qoplab sharbat usulida qoʻllash, tuproqdagi harakatchan oziqa moddalarga ijobiy taʼsir koʻrsatdi. Kuzgi bugʻdoyning toʻla pishish davrida uning qismlari tarkibida umumiy azot 41,9 mg/oʻsimlik, fosfor 24,3 mg/oʻsimlik va kaliy 40,9 mg/oʻsimlik ni, uning nisbati esa 1:0,6:1 ni tashkil etdi.

9. Andijon viloyatining sugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlari sharoitida kuzgi bugʻdoydan yuqori va sifatli hamda texnologik koʻrsatkichlarini taʼminlash uchun mineral oʻgʻitlarning meʼyorini $N_{180}P_{130}K_{70}$ kg/ga qilib belgilash tavsiya etiladi.

10. Sugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlar nitrat shaklidagi azot bilan juda kam, harakatchan fosfor bilan kam va almashinuvchi kaliy bilan oʻrtacha taʼminlanganda yillik fosforli va kaliyli mineral oʻgʻitlarni 100 foiz shudgor ostiga, azotli oʻgʻitlarni esa ekish oldidan 30 kg/ga, tuplanish davrida 50 kg/ga, naychalash davrida 75 kg/ga, boshqalash fazasidagi N_{25} kg/gani goʻng shaltogʻi (8 t/ga) bilan qoplab sharbat usulida qoʻllash tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.25/30.12.2019.QX/V.43.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ
ПОЧВОВЕДЕНИЯ И АГРОХИМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

**АНДИЖАНСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

НАБИЕВ УЛУГБЕК НЕЪМАТОВИЧ

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ СРОКОВ ПРИМЕНЕНИЯ АЗОТНЫХ
УДОБРЕНИЙ ПОД ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ В УСЛОВИЯХ СВЕТЛО-
СЕРОЗЁМНЫХ ПОЧВ (В УСЛОВИЯХ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

06.01.04 – «Агрохимия»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент - 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан №B2017.3.PhD/B127.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Андижанском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, русский, и английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.soil.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Ибрагимов Назирбай Мадримович**
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты: **Санакулов Акмал Лапасович**
доктор сельскохозяйственных наук, профессор
Самаркандский государственный университет

Баиров Абдунаби Жураевич
кандидат сельскохозяйственных наук,
старший научный сотрудник
Институт почвоведения и агрохимических исследований

Ведущая организация: **Ташкентский государственный аграрный университет**

Защита состоится «___» _____ 2024 г. в «___» часов на заседании Научного совета DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 при Институте почвоведения и агрохимических исследований (Адрес: 100179, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Камарнисо, 3). Тел.: (+99871) 246-09-50 ; факс: (99871) 246-76-00; e-mail: info@soil.uz.

С данной диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института почвоведения и агрохимических исследований (зарегистрирована за № ____). Адрес: 100179, г.Ташкент, Алмазарский район, ул. Камарнисо, 3. Тел.: (99871) 246-09-50.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года.
(реестр протокола рассылки № __ от _____ 2024 г.)

Ш.М.Бобомуродов

Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней, д.б.н.,
старший научный сотрудник

Ж.М.Кузиев

Учёный секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.ф.с.х.н., старший научный сотрудник

Н.Ю.Абдурахмонов

Председатель научного семинара по
присуждению учёных степеней, д.б.н.,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день «в мире озимая пшеница засеивается на площади 221 млн га, а объем валового урожая составляет 769 млн тонн. Где основная доля урожая приходится на Китай (132 млн), Индию (102 млн), Россию (74 млн). В мире было экспортировано 184 млн тонн зерновой продукции, выращенной в 2022 году, и ее основная часть экспортирована из таких стран, как Россия (35 млн тонн), Евросоюз (32 млн тонн), США (27,5 млн тонн), Канада (23 млн тонн), Украина (20,5 млн тонн). При этом отмечено, что основное место занимает вклад минеральных и органических удобрений³. Поэтому удовлетворение потребности населения в зерновой и мучной продукции за счет получения качественного и высокого урожая сельскохозяйственных культур, в частности озимой пшеницы, путем создания питательной среды в почве, и разработки оптимальных норм и сроков внесения минеральных удобрений, соответствующих почвенно-климатическим условиям каждого региона является одним из актуальных вопросов.

В мире важным является создание баланса питательных веществ при получении высокого и качественного урожая сельскохозяйственных культур, в частности зерновых, путем применения минеральных и органических удобрений в оптимальных нормах и сроках в зависимости от свойств почвы. В мире проводятся научные исследования по приоритетным направлениям по выносу питательных веществ с урожаем и различными частями сельскохозяйственных культур, потребности в питательных веществах в течение вегетационного периода, а также использованию ресурсосберегающих технологий. В этом плане необходима разработка оптимальных норм и сроков внесения минеральных удобрений с учетом агрохимических показателей почв, биологических свойств растений, почвенно-климатических условий, уровня обеспеченности почв гумусом и питательными веществами, а также свойств удобрений. Уделяется особое внимание научным исследованиям, направленным на управление питанием сельскохозяйственных культур путем формирования оптимальной питательной среды для сельскохозяйственных культур в вегетационный период.

В республике проводятся широкомасштабные научные исследования и достигнуты определенные результаты, направленные на определение вида, сорта культуры, оптимальных норм и сроков внесения минеральных и местных удобрений в зависимости от почвенно-климатических условий каждого региона в системе чередования хлопчатника и зерновых культур на существующих орошаемых площадях республики.

В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены «...повышение плодородия почвы и ее защита; совершенствование системы оказания агроуслуг, основанных на передовых

¹ <https://latifundist.com/rating/top-10-stran-proizvoditelej-pshenitsy-v-2019-godu>.

